



## UZBEKISTAN AND AZERBAIJAN: RELATIONS GAINING MORE “STRATEGIC DEPTH”

**Munavvar Eshpulatovna Gulboyeva**

master's student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: [gulboyevamunavvar@gmail.com](mailto:gulboyevamunavvar@gmail.com)

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Uzbekistan, Azerbaijan, cooperation, contract, trade-economic relations, energy, investment cooperation.

**Abstract:** The article talks about the growing mutually beneficial relations between the two countries, in particular, Uzbekistan and Azerbaijan.

**Received:** 28.04.24

**Accepted:** 30.04.24

**Published:** 02.05.24

## O'ZBEKISTON VA OZARBAYJON: TOBORA “STRATEGIK CHUQURLIK” KASB ETIB BORAYOTGAN MUNOSABATLAR

**Munavvar Eshpulatovna Gulboyeva**

magistratura talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: [gulboyevamunavvar@gmail.com](mailto:gulboyevamunavvar@gmail.com)

### МАҚОЛА НАҚИДА

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Ozarbayjon, hamkorlik, shartnoma, savdo-iqtisodiy munosabatlar, energetika, investitsion hamkorlik.

**Annotatsiya:** Maqlada ikki davlat, xususan O'zbekiston va Ozarbayjonning o'zaro manfaatli aloqalarining tobora yuksalib borayotganligi so'z boradi.

## УЗБЕКИСТАН И АЗЕРБАЙДЖАН: ОТНОШЕНИЯ ПРИОБРЕТАЮТ БОЛЬШЕ «СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ГЛУБИНЫ»

**Мунаввар Эшпулатовна Гульбоева**

студент магистратуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: [gulboyevamunavvar@gmail.com](mailto:gulboyevamunavvar@gmail.com)

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Узбекистан, Азербайджан, сотрудничество, контракт, торгово-экономические отношения, энергетика, инвестиционное сотрудничество.

**Аннотация:** В статье говорится о растущих взаимовыгодных отношениях между двумя странами, в частности, Узбекистаном и Азербайджаном.

---

### KIRISH

Bugungi kunda davlatlar o‘rtasida hamkorlik rishtalarini bog‘lash, u qay bir sohada bo‘lmasin, davlatlar taraqqiyoti, rivoji va yuksalishiga bevosita xizmat qilishi shubhasizdir. Ta’kidlash joizki, bugungi global o‘zgarishlarga boy xalqaro hayotda bu omil yanada ustuvor ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, davlatlar o‘z taraqqiyot strategiyalarini belgilar ekan u yoki bu davlat bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, harbiy, madaniy, transport-logistika, energetika kabi muhim sohalar yuzasidan xalqaro hamkorlik munosabatlarini amalga oshirish orqali o‘z tashqi siyosatini yanada kengaytiradi, rivojlantiradi va mustahkamlaydi. Bu xususda O‘zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari ham alohida ahamiyatga ega.

**Методлар:** ushbu maqolada tizimli, tarixiy, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

### ASOSIY QISM

Avvalo, O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ular uzoq o‘tmishga ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Qardosh ikki millat vakillari madaniyatlar, tillar hamda an'analar mushtarakligi orqali qadim davrlardan buyon bir-biriga bog‘lanib kelgan. Qolaversa, tarixan ikki davlat o‘rtasida savdo karvon yo‘llari orqali savdo-iqtisodiy munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu xususda Toshkent Moliya instituti dotsenti Farhod Adilov shunday ta’kidlaydi “O‘rta Osiyo va Kavkazortida joylashgan davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda savdo aloqalariga katta e’tibor berilgan. Bu savdo aloqalarining rivojlanishida yirik shaharlarning ahamiyati katta bo‘lgan. Xiva, Buxoro, Samarcand va Bokuni shunday shaharlar qatoriga kiritish mumkin” [1]. Yuqorida ta’kidlanganidek o‘zbek va ozar xalqlarining tili, dini, madaniyati, urf-odatlari juda yaqin bo‘lishi bilan birlgilikda ular hatto bir davlat tarkibida muayyan davrlarda birga istiqomat qilganligi haqida siyosatshunos Farhod Karimov quyidagilarni ta’kidlaydi, “azal-azaldan o‘zbek va ozar xalqlarini tarixiy madaniyat, til va urf-odatlar birlashtirib kelgan. Bu xalqlar qaysidir davrlarda bitta davlat tarkibida birlgilikda hayot kechirgan. Masalan, Saljuqiyalar davri (XI asrdan XIV asrgacha mavjud bo‘lgan davlat) da Ozarbayjonning katta qismi shu davlat tarkibiga kirgan. Bundan tashqari Temuriylar davrida bu ikki xalq yanada yaqinlashgan, ular o‘rtasida quda-andachilik yo‘lga qo‘yilgan”[2]. Anglaganimizdek, ikki turkiy tilli davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar asrlar davomida taraqqiy etib o‘z tadrijiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan va bugungi kunda tobora jadallahmoqda.

Ta'kidlash joizki, ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar 1995-yil 2-oktabrda o'rnatilgan bo'lib, 1996-yil o'rtalarida O'zbekiston Respublikasida Ozarbayjon davlatining elchixonasi o'z faoliyatini boshlagan bo'lsa, 1998 yil may oyidan boshlab Ozarbayjonda O'zbekiston elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. Ozarbayjon va O'zbekiston elchixonalarining har ikki davlat hududida ochilishi bu davlatlarning mintaqadagi o'rni, o'zaro munosabatlarini yanada kengaytirishi va takomillashtirishidan dalolatdir.

Ma'lumki, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yishda avvalo davlat rahbarlarining amaliy tashriflari muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 1996-yil 26-27-may kunlari Ozarbayjonga qilgan ilk rasmiy tashrifini amalgalash oshirganligini va tashrif chog'ida o'zaro hamjihatlik va do'stlik muhitida ikki davlat o'rtasida 19 ta shartnomani o'z ichiga olgan hujjatlar to'plami imzolanganligini qayd etish lozim. Ushbu hujjatlar ikki tomonlama munosabatlarning ko'plab sohalarida hamkorlik qilishni o'z ichiga olgan edi. Shuningdek, 1996-yil 21-22-oktabr kunlari Ozarbayjon Prezidenti Haydar Aliyev Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining IV forumida va atoqli davlat arbobi Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan yubiley tadbirida ishtirot etish uchun Toshkentda bo'lgan edi [3].

**O'zbekiston-Ozarbayjon hamkorligining yangi davri.** Shuni ta'kidlash joizki, Haydar Aliyev va Islom Karimov tomonidan samarali muloqotni mustahkamlash bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilgan bo'lsa, bugungi kunda bu o'zining mantiqiy davomini topmoqda. Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyev o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston-Ozarbayjon munosabatlarni misli ko'rilmagan darajaga ko'tardi, ikki tomonlama hamkorlikning keng doirasi va barcha ko'p qirrali tomonlarini qamrab olgan chinakam konstruktiv munosabatlar uchun zamin yaratdi. Sankt-Peterburg davlat universitetining "Postsovet hududida xalqaro aloqalar" kafedrasи mudiri Niyoziy Niyozov ta'kidlashicha, "davlat rahbarlari Ilhom Aliyev va Shavkat Mirziyoyev o'rtasidagi do'stona munosabatlar tufayli bugun Ozarbayjon-O'zbekiston munosabatlari juda yuqori darajada" [4]. Darhaqiqat, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-23 avgust kunlari amaliy tashrif bilan Ozarbayjonda bo'ldi. Mirziyoyevning iyul oyida qayta saylanganidan keyin Ozarbayjonga ilk rasmiy tashrifini nishonlagan holda, safar samarali bo'ldi deyish mumkin. Ya'ni, ikki davlat rahbarlari va vazirliklari o'rtasida bir qancha strategik hamkorlik shartnomalari imzolandi. Bundan tashqari, Mirziyoyev Ozarbayjonning Qorabog'dagi ozod qilingan hududlarida bo'lib, Fuzuli shahridagi maktabning ochilish marosimida ishtirot etdi. O'zbekiston Prezidentining tashrifi ikki davlat O'zbekiston-Ozarbayjon o'zaro munosabatlari salohiyatini to'liq ochish uchun savdo va transportdagi to'siqlarni bartaraf etishni maqsad qilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Ma'lumki, O'zbekiston o'zining tashqi siyosatini amalga oshirishda milliy manfaatlarga, asosiy tamoyillar sanaluvchi, jumladan, ochiqlik, teng huquqlilik, suverenitet, hududiy yaxlitlikni hurmat qilish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi ustuvorliklarga doimo sodiqdir. Xalqaro munosabatlar tahlili markazi eksperti Roza Bayramlining ta'kidlashicha, "O'zbekiston har doim Ozarbayjon Respublikasining hududiy yaxlitligini qo'llab-quvvatlab kelgan. BMT Bosh Assambleyasining 2008-yil 14-martda bo'lib o'tgan "Ozarbayjonning bosib olingan hududlaridagi vaziyat" to'g'risidagi rezolyutsiyasini qabul qilish bo'yicha ovoz berish chog'ida O'zbekiston Markaziy Osiyodagi yagona davlat bo'lib, mazkur hujjatning qabul qilinishiga "ma'qul" deb ovoz berdi". Ozarbayjonning "STEM" tahliliy markazi direktori Orxan Yelchuyevning "O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti" rasmiy saytida bergan intervyusida ta'kidlashicha, "O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi tarixan yaqin do'stlik munosabatlari Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyev davrida o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichiga qadam qo'ydi va hali foydalanimagan ulkan salohiyatga ega. Bunga O'zbekistonning so'nggi yillarda xalqaro nufuzi sezilarli darajada oshgani, xususan, mamlakatning yangi tashqi siyosat kursi sabab bo'lmoqda". "Tashqi munosabatlardagi ochiqlik siyosati Markaziy Osiyoning ushbu davlatini mintaqadagi muhim o'yinchiga aylantirmoqda. Darhaqiqat, bugun respublika o'zining uchinchi uyg'onish davrini boshdan kechirmoqda." - deb qo'shimcha qildi O'rxon Yelchuyev[5].

**O'zbekistonning Ozarbayjon bilan hamkorligining istiqbolli o'sish nuqtalari.** So'nggi yillarda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida turli sohalarda, jumladan iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy sohalardan tashqari energetika, transport, aloqa, elektrotexnika, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati sohalarida ham hamkorlikni kengaytirishga e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, 2023-yilda energetika sohasida 2023-2025 yillarga mo'ljallangan yo'l xaritasi imzolandi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi, sanoat, turizm, avtomobilsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi sohalarda ham hamkorlikni kengaytirish rejalashtirilgan. Ozarbayjon Respublikasi Davlat Neft Kompaniyasi (SOCAR) va "O'zbekneftgaz" o'rtasida qo'shma korxonalar tashkil etish jarayonlari boshlandi. Buni o'ta muhim voqeа sifatida talqin qilish mumkin, chunki bu Kaspiy dengizidagi energetika loyihibalariga O'zbekistonni ham jalb etish imkoniyatidan dalolat beradi. Chunki hamkorlik imkoniyatlari, jumladan, Ozarbayjondagi tabiiy gaz konlarini O'zbekiston bilan birgalikda o'zlashtirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi va bu tabiiy ravishda tomonlar o'rtasida sheriklik munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda prezidentimiz tomonidan energetika sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan yana bir muhim dastur amalga oshirilganligini ta'kidlash joizdir. Ya'ni, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida

energetika sohasida hamkorlikni chiqaruvchilari qaratilgan xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi[6]. 2023-yil 22-avgust kuni Boku shahrida imzolangan kelishuv prezident farmoni bilan rasmiylashtirildi.

**Investitsion hamkorlik.** Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi internet portalining xabar berishicha, O'zbekiston va Ozarbayjon ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi sanoat hamkorligining istiqbolli yo'naliishlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- avtomobilsozlik sohasida hamkorlikni yanada kengaytirish;
- Ozarbayjonda elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan alyuminiy ishlab chiqarishni hisobga olgan holda elektrotexnika sanoatida;
- to'qimachilik sanoatida, to'qimachilik mahsulotlarini birgalikda ishlab chiqarish uchun xomashyo bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan Ozarbayjon tomonidan paxta tolasini ishlab chiqarishni hisobga olgan holda;
- qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida, shuningdek, Ozarbayjonning ozod qilingan hududlarida restavratsiya ishlarini olib borishda O'zbekistonning ishtiroki uchun Ozarbayjonda qo'shma qurilish kompaniyalarini tashkil etish;

Shuningdek, neft va gaz sanoatining Ozarbayjon iqtisodiyotidagi o'rnini hisobga olgan holda kimyo va neftni qayta ishlash sanoatida qo'shma loyihalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekistonda Ozarbayjon kapitali ishtirokidagi 204 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda (2017-yilda 71 ta), ulardan 67 tasi qo'shma korxona va 137 tasi xorijiy korxonalardir. Joriy yil boshidan buyon 21 korxona tashkil etildi. Ozarbayjon eksporti tarkibida neft mahsulotlari katta ulushni egallaydi va Ozarbayjon uchun iqtisodiyotning noneft sektorini rivojlantirish ham dolzarbdir [7]. Bu borada mamlakatlarimizdagи ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va uchinchi davlatlarga eksport qilish uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma ishlab chiqarishlar tashkil etish bu muammolarni hal etishga xizmat qiladi. O'zbekiston uchun Ozarbayjon bilan transport sohasida hamkorlik qilish, xususan, o'z yuklarini Yevropa davlatlariga yetkazib berishda Transkaspiy xalqaro transport yo'nalişidan (TITR) samarali foydalanish muhimligini alohida ta'kidlash lozim.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning faollashiwi keng ko'lamli siljishlar davrida, davlatlar mintaqalararo hamkorlikka yaqinlashayotgan bir paytda sodir bo'lmoqda. Bunda ikki davlatning umumiyligi turkiy merosi alohida rol o'ynaydi, chunki O'zbekiston va Ozarbayjon Turkiy Davlatlar

Tashkilotining boshqa a'zolari qatorida bir-birlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishga ustuvor ahamiyat bermoqda. Umumiy madaniy meros va mintaqaviy tashkilotlar orqali ortib borayotgan ishtirok, shuningdek, ushbu mamlakatlar uchun, ayniqsa, savdo, energetika va transport sohalarida mavjud ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash uchun rag'batlantiruvchi asos yaratadi. Shavkat Mirziyoyev tashrifî chog'iда ta'kidlanganidek, "Ozarbayjon munosabatlarining to'liq salohiyati hali o'rganilishi shart emas, chunki har ikki davlat savdo to'siqlarini bartaraf etish va biznes uchun yanada qulay muhit yaratishga harakat qilmoqda".

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Adilov.F. Ўрта Осиё хонликларининг савдо алоқаларида Бокунинг тутган ўрни. Jurnal of universal sciense research, 2023. – B. 204-207.
2. Sardor Ali. (2023). *Uzoqdagi yaqin qardoshlar: O'zbekiston va Ozarbayjon manfaatlari.* <http://m.xabar.uz/uz/mualliflar/sardor/bir-millat-ikki-davlat-ozarbayjon-va-ozbekiston-hamkorligi>
3. Сайдов. И. М. УЗБЕКСКО-АЗЕРБАЙДЖАНСКИЕ ОТНОШЕНИЯ. [http://www.anl.az/down/meqale/qafqazshunasliq/2021/01/780872\(meqale\).pdf](http://www.anl.az/down/meqale/qafqazshunasliq/2021/01/780872(meqale).pdf)
4. Niyazov.N.(2024) *Azerbaijan and the Turkic-Speaking Countries of Central Asia – Deepening Interaction.* <https://valdaiclub.com/a/highlights/azerbaijan-and-the-turkic-speaking-countries/>
5. *The first interregional forum between Uzbekistan and Azerbaijan will deepen ties between regions in industrial cooperation and investment.* (2023). <https://isrs.uz/en/yangiliklar/pervyj-mezregionalnyj-forum-mezdu-uzbekistanom-i-azerbjaznom-pozvolit-uglubit-svazi-mezdu-regionami-v-promkooperacii-i-investiciyah>
6. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 19.03.2024 г. № ПП-134 : <https://lex.uz/ru/pdfs/6843600>
7. Перспективные точки роста партнерства Узбекистана с Азербайджаноме. (2023). <https://e-cis.info/news/566/111480>